MAMLAKATIMIZDA KICHIK VA O‘RTA BIZNES SUBYEKTLARINING QO‘LLAB -QUVVATLANISHI

Bayzakova Dilbar Fayziyevna, Habibullayev Abdulaziz Bahrom o‘g‘li
Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar orqali iqtisodiyotning barqaror o‘sishi, kichik va o‘rta biznesning o‘rni,mamlakatimizda uni rivojlantirish uchun yaratilayotgan yangi imkoniyatlar va davlat tomonidan qo‘lllab quvvatlanishi bayon etilgan

Kalit so‘zlar: Tadbirkorlik, kichik biznes ,o’rta biznes, tadbirkorlik, iqtisodiy islohotlar, oilaviy tadbirkorlik, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar,aholi bandligi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются стабильный рост экономики, экономические реформы, роль и место малого и среднего бизнеса, новые возможности ,созданные для развития малого и среднего бизнеса в Узбекистане, поддержка малого и среднего бизнеса государством.

Ключевые слова: предпринимательство, малый бизнес, средний бизнес, экономические реформы, семейное предпринимательство, макроэкономические показатели, занятость населения.

Annotation

This article describes the sustainable of the economy through economic reforms in Uzbekistan, the role of small and medium-sized business, new opportunities created for its development in our country, and state support.

Key words: Entrepreneurship, small business, medium business, economic reforms, family business, macroeconomic indicators, population employment

Tadbirkorlik subyektlariga nisbatan asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar yetkazib berish bo‘yicha import shartnomalari yuzasidan muddati o‘tgan debitor qarzdorlik uchun, agarda mazkur buyumlarni yetkazib berish muddati ularning texnik xususiyatlari va o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda 180 kundan ortiq bo‘lsa, moliyaviy jazo choralari qo‘llanilmasligi belgilandi.

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish choralari ko‘rildi.

Umuman olganda mamlakatimizda tadbirkorlikni, ayniqsa kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, ularning faoliyatida kelib chiqayotgan muammo va to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha kompleks choralar ko‘rilmoqda. Natijada o‘tgan bir yilda 55 mingdan ortiq biznes uchun mo‘ljallangan binolar barpo etildi, pul aylanmasini 1 million dollardan oshirgan tadbirkorlar soni 5 mingtaga ko‘payib, 26 mingtani tashkil etdi, eksport qiluvchi korxonalar soni 7,5 mingtaga yetib, jami eksport hajmi 30 foizga ko‘paydi.

Tadbirkorlar hayotida qanday ijobiy o’zgarishlarga erishildi? Umuman, birgalikdagi olib borilgan ishlar mamlakatimiz iqtisodiyotiga qanday ijobiy ta'sir ko’rsatdi?

Birinchidan, ta’kidlash kerakki , biznes subyektlari mikro, kichik, o‘rta va yirik toifalarga bo‘lindi va ularning har biri bilan alohida yondashuvlar asosida ishlash tizimi yo’lga qo’yildi.

Shuningdek, tuman va shaharlar ham 5 ta toifaga ajratildi, 60 ta tumanga alohida soliq, kredit va moliyaviy yordam tartiblari joriy qilindi. Natijada bu tumanlardagi tadbirkorlar o‘tgan olti oyda qariyb 1 trillion so‘mlik imtiyozlardan foydalandi. Buning hisobidan 20 ta tumandagi tadbirkorlarning daromadi o‘tgan yilga nisbatan 1,5-2 barobar oshdi.[8].

Samarasiz soliq mexanizmlarini qo‘llash oqibatida vujudga kelgan soliq qarzdorligidan voz kechganimiz qisobidan biznes ixtiyorida 2 trillion so’m qoldi.

Ikkinchidan, kredit berishda aylanmadagi tovarlar, eksport shartnomalari, akkreditivlar va kelgusi tushumlardan ham garov ta'minoti sifatida foydalanish tizimi yaratildi. Bu imkoniyatdan foydalangan tadbirkorlarimizga 1 milliard dollar kreditlar berildi.

Shuningdek, mikro-moliya tashkilotlarini ochish tartibini oson qildik. Buning natijasida mamlakatimizda banklarga muqobil kreditlar bozori paydo bo’ldi. Natijada so‘nggi bir yilda bunday tashkilotlar soni 1,5 barobar, ular ajratgan kredit miqdori esa 3 barobar oshdi. Bir yilda nobank tashkilotlar 3 trillion so‘m kredit bergan.

Biz bojxona hududida qayta ishlash tizimini soddalashtirdik. Natijada ushbu bojxona rejimidan foydalanuvchi tadbirkorlar soni 2 barobar ko‘paydi. Misol uchun, bir yil ichida ushbu imkoniyat orqali 455 million dollarlik maqsulot eksport qilindi. Shu tariqa 110 million dollarlik qo‘shilgan qiymat yaratildi[9].

Uchinchidan, ilgari yangi tadbirkorlar uchun “kirish qiyin bo‘lgan” 119 ta faoliyat bo’yicha litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi yoki xabardor qilish shakliga o’tkazildi. Mamlakatimiz hududida birgina yuklarni avtomobilda tashish faoliyati bo’yicha litsenziyalarni bekor qilish hisobidan yuk tashish hajmi 1,5 barobar oshdi va hk.

Ta’kidlash lozimki, 2023 yilning olti oyida tekshirishlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 40 foiz yoki 104 mingtadan 64 mingtaga kamaygan. Ya'ni, tadbirkorlarimiz to‘g’ri ishlash “soyada” ishlashdan ko’ra afzal ekanini tushunib etmoqda. Shuning uchun ham soliq hisobotlarini topshirish va kameral tekshirish natijalari bo‘yicha moliyaviy jarimalar qo‘llash bekor qilindi.

Berilgan imtiyozlardan foydalanib, bir yilda 155 ta korxonaning yillik aylanmasi 100 million dollardan oshdi. Kiritilgan yillik xorijiy sarmoyalar qajmi esa ilk bor 10 milliard dollarga yetdi.Bo’lib o’tgan ochiq muloqotlardan keyin so’nggi ikki yilda korxonalarimiz tomonidan 25 milliard dollarlik mahsulotlar eksport qilindi va avval import qilingan 10 milliard dollarlik mahsulotni o’zimizda ishlab chiqarish yo’lga qo’yildi.

2023 yil 12 iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni e’lon qilindi.

Mazkur huquqiy hujjatga asosan, mamlakatimizda “20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturi amalga oshiriladi. 2023-2024 yillarda dasturni amalga oshirish uchun jami 1 milliard AQSh dollari miqdorida kredit ajratiladi. Bunda dasturga kiritilgan tadbirkorlik subyektlarining loyihalarini moliyalashtirish uchun 2023 yilda Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan tijorat banklariga 100 million AQSh dollari ekvivalentida kredit liniyasi ochiladi[10].

Shu o‘rinda soliq va bojxona ma’muriyatchiligini soddalashtirish borasida belgilangan ustuvor vazifalarga ham alohida e’tibor qaratib o‘tish lozim. Belgilab qo‘yildiki, qo‘shilgan

[8] Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko‘tarish – ustuvor vazifamizdir. O‘zbekiston Respublikasi. Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 18 avgustda tadbirkorlar bilan o‘tkazgan Ochiq Muloqoti

[9] Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko‘tarish – ustuvor vazifamizdir. O‘zbekiston Respublikasi. Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 18 avgustda tadbirkorlar bilan o‘tkazgan Ochiq Muloqoti

[10] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni.PF-93 sonli 12.06.2023 yil.

qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplash (qaytarish), shuningdek, barcha soliq turlari bo‘yicha mavjud ortiqcha to‘lov summasini qaytarish bir kun muddatda tezlashtirilgan tartibda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, tovarlar importida va tovarlar yoki xizmatlar realizasiyasida to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summalarini bojxona va soliq organlarining hisob tizimlarida o‘zaro hisobga olish imkoniyati beriladi. Eng e’tiborlisi, bojxona nazoratini amalga oshirishda “yashil yo‘lak” qoidalari amal qiladi.

Ko‘rilayotgan ushbu chora-tadbirlar hududlarning yo‘l-transport, elektr, aloqa va turizm infratuzilmasini yaxshilash hamda kichik va o‘rta shaharlarni rivojlantirish, mahallalarni sanoatlashtirish, tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va rivojlantirishga xizmat qilishi bilan birga, aholining bandligi hamda doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishida ham muhim omildir. Bu zanjirning bir butun bo‘lishi iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi. Iqtisodiy o‘sish, o‘z navbatida, farovonlik olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, hamjihatlikda amalga oshirilayotgan islohotlar mavjud qiyinchiliklarga qaramay o‘z samarasini berib kelayapti. Kichik va o‘rta biznes, xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish, fuqarolarning daromadlari va farovon yashashini ta’minlashga alohida hissa qo‘shmoqda. Mazkur jarayonlarning muvaffaqiyati va yuqori samarali bo‘lishida davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan islohotlar strategiyasining aniq va izchil amalga oshirilganligi mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

2023 yil 1 oktyabrdan boshlab «Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash» kompleks dasturi amalga oshiriladi. Biznesni rivojlantirish banki Dasturni amalga oshirish va takomillashtirib borish bo‘yicha asosiy tayanch bank etib belgilanmoqda. Dastur tuzilmasi va vazifalari quyida keltirilgan.

2023-2026 yillarda Dasturni amalga oshirish uchun:

- davlat mablag‘lari hisobidan – 6 mlrd so‘m;
- xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan – $1,2 mlrd yo‘naltiriladi[11].

Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida 4 ta instrumentlar qo‘zda tutilmoqda:

- tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish yoki kengaytirish uchun 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga hamda aylanma mablag‘lar uchun revolver tarzda 3 yilgacha muddatga yillik Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada 1,5 mlrd so‘mgacha kreditlar ajratish va (yoki) asosiy vositalarni sotib olish uchun lizing berish. Bunda, 100 mln so‘mgacha kreditlarni garovsiz, 150 mln so‘mgacha kreditlarni garov talabi 50% gacha pasaytirilgan holda ajratish imkoniyati nazarda tutiladi;
- qiymati 1,5 mlrd so‘mgacha bo‘lgan asosiy vositalarni 7 yilgacha bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan qarzga berish;
- 24 oydan ortiq, faoliyat yuritayotgan va oxirgi 12 oyda aylanma mablag‘lari miqdori 1 mlrd so‘mdan 10 milliard so‘mgacha bo‘lgan hamda kamida 10 nafar kishini doimiy ish bilan ta’minlagan kichik tadbirkorlik sub’yektlarining yangi loyihalariga va mavjud ishlab chiqarishni kengaytirishga oid loyihalariga bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlari va yer maydonlari, asbob-uskunalar, bino-inshootlar va boshqa ko‘rinishdagi moddiy aktivlar bilan 20% gacha, biroq 1 mlrd so‘mdan ortiq bo‘lmagan qiymatda ulushdor bo‘lib kirish;
- innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, yuqori texnologiyali startap loyihalariga davlat ilmiy dasturlari doirasida 2 mlrd so‘mgacha grant mablag‘larini ajratish.

Shuningdek, ishtirokchilarga:

- litsenziya, ruxsatnoma va sertifikatlar olish masalalari, bojxona va soliq ma’muriyatchiligi, eksport va import operatsiyalari, shartnomalarni rasmiylashtirish;
- davlat xaridlarida ishtirok etish, shuningdek, yer uchastkalari va bino-inshootlarni sotib olish yoki ijaraga olish va loyihalashtirish;
- tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaldagi imtiyoz va preferensiyalar, mavjud boshqa yengilliklar va imkoniyatlar bo‘yicha ma’lumot va maslahatlar berish.

[11] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.01.2024 yildagi 37-son

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.01.2024 yildagi 37-son

2.Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko‘tarish - ustuvor vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi. Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 18 avgustda tadbirkorlar bilan o’tkazgan Ochiq Muloqoti.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni.PF-93 sonli 12.06.2023 yil.

4.Umirova, G. Iqtisodiyotimizni rivojlantirishda innovatsiyalarning tutgan o‘rni va ro'li //Qo‘qon universiteti xabarnomasi. – 2022. – Т. 5. – С. 64-66.

5.Umirova, G. (2022). Mamlakatimizdagi monopoliyaga qarshi kurashishning raqobat muhitini shakllantirish. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, *1*(1), 288-290.

6.Агабекян Р. Л., Баяндурян Г. Л. Институциональная экономика. Бизнес и занятость; Магистр - Москва, 2013. - 464 с.

7.Sh, U. G., & Khurmatov, B. (2024). Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligining nazariy asoslari. *Экономика и социум*, (3-2 (118)), 401-404.

8.Umirova Gulmira. (2023). The need to attract foreign investments to the national economy on a large scale. *Academia Science Repository*, *4*(5), 314–319. Retrieved from https://academiascience.com/index.php/repo/article/view/696

9.Джаббарова Ю.А. «Основные тенденции на рынке книжной продукции в Республике Узбекистан.» журнал том 3 номер 5 ст 36-40.

10.Мелибоева, М., & Мелибоев, А. (2024). Развитие управления экономической компетентностью промышленных предприятий в регионах. Журнал универсальных научных исследований, 2(4), 418-425.

11.Jamolov, O. (2023). FACTORS ENSURING THE ACTIVITY OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITIES. Экономика и социум, (2 (105)), 131-134.